

2022-yil 27-may

Birinchi o'zbek kimyogar qizi haqida bilasizmi?



Zarifa Saidnosirova 1908-yil 31-sentabrda Turkiston shahrida tug'ilgan. Kimyogar olim. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1968), professor (1970). Kimyo fanlari nomzodi (1945). Birinchi o'zbek ayol rassomi. Taniqli ma'rifatparvar S. Mirjalilovning qizi, yozuvchi Oybekning rafiqasi.

Toshkentda "Pestolossi" maktabi (1922-26), Navoiy nomidagi ta'lim-tarbiya texnikumi (1924-36) va ayni paytda Rozanov tasviriy san'at studiyasi (1924-26) da o'qigan. So'ng O'rta Osiyo universiteti fizika-matematika fakultetining kimyo bo'limini tugatib (1926-30), o'rta maktablar, xotin-qizlar bilim yurti va ishchilar fakultetida fizika, matematika va kimyo fanlaridan dars bergan. Qishloq xo'jalik institutida o'qituvchi, dotsent va kafedra mudiri (1930-86), Toshkent tibbiyot institutida o'qituvchi (1932-37), O'quvpedagogika nashriyotida muharrir (1934-35) bo'lib ishlagan.

O'rta maktablar va texnikumlar uchun "Kimyo" darsligi (1933) muallifi. Zarifa Saidnosirova pedagogik faoliyatidan tashqari, volfram kompleks birikmalari va kimyo terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati ustida ilmiy ish olib borgan. "Ximiyadan ruscha-o'zbekcha qisqacha izohli lug'at" (hamkorlikda, 1975), "Oybegim mening" (xotiralar, 1994) kitoblari chop etilgan.

Zarifa Saidnosirova Oybek adabiy merosini saqlash, tartibga solish va nashr etish ishiga katta hissa qo'shgan. U adibning o'zbek tilidagi 20 jildlik "Mukammal asarlar to'plami" (1975-85)ni, rus tilidagi 5 jildlik "Asarlar"i (1985-87)ni nashrga tayyorlashda faol ishtirok etgan. Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1985). Zarifa Saidnosirova 1986-yil 16-avgustda Toshkentda vafot etgan. Tasviriy san'atga oid ishlari Oybek uy-muzeyida saqlanadi.

U o'zining "Oybegim mening" xotiralar kitobida bunday eslaydi: *"Men 1930-yildan boshlab, o'rta maktablar uchun kimyodan darslik yozishni o'ylay boshladim. Buning uchun eng avval kimyo*

atamalarini ishlab chiqish kerak edi. Shuning uchun men atamalar bilan shug'ullana boshladim va ayni zamonda darslik yozishga ham hozirlik ko'rdim. Rabfaklar va texnikumlar uchun yozdigim "Anorganik kimyo" darsligi bosilib chiqdi. Hajmi 18 bosma toboq bo'lib, lotin harfi ila chop etilgan. Bu kimyo fanidan o'zbek tilida chop etilgan birinchi darslik edi. Shu tufayli menga dotsentlik unvonini berdilar. Kitobga shoir Elbek muharrir bo'ldi. U kamtarin, xushmuomala odam edi. Men 1931-1932-yillarda SAXIPI nashriyotiga kimyo bo'yicha atamalar kitobini topshirgan edim. Darslikdan so'ng u ham bosilib chiqdi. O'sha yillarda o'rta maktablarning qariyb barcha sinflarida Verxovskiyning kimyo fani bo'yicha chiqargan kitoblari darslik sifatida o'qitilar edi. Men shu darsliklarning ko'pini o'zbek tiliga tarjima qildim".

source:

"O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/kimyogar-qiz-fan-arbobi>